

QISHLOQ XO'JALIGINING IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHDA AGROKLASTERNING O'RNI

Eshmurodov Otabek Tashmurodovich

Toshkent davlat agrar universiteti Samarqand filiali, "Buxgalteriya hisobi (qishloq xo'jaligida)" mutaxassisligi Bo'yicha 2-bosqich magistratura talabasi

ARTICLE INFO.

Kalit so'zlar: Klaster, agroklaster, buxgalteriya hisobi, qishloq xo'jaligi, aylanma mablag'lar.

Annotatsiya

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlar tajribasining ijobiy natijalariga ko'ra, qishloq xo'jaligining raqobatbardosh rivojlanishining samarali omillaridan biri agroklasterni takomillashtirish muhim omillardan hisoblanadi. Ushbu maqolada qishloq xo'jaligida iqtisodiy o'sishni ta'minlashda agroklasterni tashkil etishning hozirgi holati, iqtisodiyotdagi o'rni va fermir xo'jaliklarining mahsulotlarini baholash usullarining mazmuni nazariy o'rganilgan hamda amaliy jihatli taxlil qilinib fikrlar berilgan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2023 LWAB.

Kirish. O'zbekiston Respublikasida so'ngi yillarda amalga oshirib kelinayotgan islohotlardan ko'zlangan asosiy maqsad agroklaster sohasida iqtisodiy o'sishni ta'minlashdan iborat bo'lmoqda. Bunda asosiy e'tibor qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirishda ilm-fandan samarali foydalanish, ta'lim hamda ishlab chiqarish integratsiyasini chuqurlashtirish, yangi innovatsion texnologiyalarni amaliyotga jadal joriy etishga qaratilmoqda. Iqtisodiyotning barcha soha va tarmoqlarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish, jumladan, agroklaster sohasida xom ashyo yetishtirishdan to tayyor mahsulotgacha bo'lgan jarayonlarni yagona texnologik zanjirga birlashtiradigan klasterlash yondashuvidan foydalanilmoqda. Ayni vaqtda agroklaster yo'nalishi iqtisodiyotning qishloq xo'jalik tarmoqlari uchun istiqbolli ekanligini namoyon etmoqda. Iqtisodiyotning muhim sohalaridan biri bo'lgan qishloq xo'jalik sohasini klasterlash asosida rivojlantirish va samaradorligini oshirish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Mamlakatimizda agroklaster sohasining rivojlanishi nazariy va uslubiy jihatlari, agroklasterni tashkil qilish va boshqarish mexanizmlarining muammolari ko'plab iqtisodchi hamda siyosatchi olimlar o'zlarining ilmiy tadqiqot ishlarida agroklasterni shakllantirish mexanizmi, soha va tarmoqlarning xususiyatlarini hisobga olgan holda agroklasterni tashkil etishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari ko'rib chiqilmoqda. K.E.Morjakova, O.G.Kryukovalar o'z tadqiqotlarida davlat tomonidan agroklaster siyosatini amalga shirishning o'ziga xos xususiyatlari va innovatsion agroklasterni tadqiq qilishgan. V.V.Proxorova, M.S.Xachaturovalar tomonidan ayrim xorijiy mamlakatlarda agroklasterni rivojlantirishning instrumentlarini tadqiq qilishgan. Ketels Ch., Lindqvist G. va Solvell O. o'z tadqiqotlarida agroklaster tashkilotlarning iqtisodiyotdagi roli va Yevropa iqtisodiyotida agroklasterning o'rnini tahlil qilishgan. Agroklasterlashtirishning innovatsion yo'nalishlari Jonathan

Sallet and Ed Paisley tomonidan o'rganilgan.

Keyingi yillarda iqtisodiyotimizda klasterlarning kirib kelishi bilan bu yo'nalishda iqtisodiyot sohasidagi bir qator mahalliy olimlarimiz ham o'z tadqiqotlarida agroklasterni tashkil etish mexanizmlari iqtisodiy aloqalar tizimini shakllantirish bo'yicha bir qator ilmiy ishlar olib borishmoqda. Jumladan, A.A.Abdullayev o'zining "Milliy iqtisodiyotda klasterlarni rivojlantirishning xorijiy mamlakatlar tajribasi tahlili" nomli ilmiy tadqiqotida AQSh, Kanada, Germaniya, Fransiya va qo'shni Qozog'iston kabi davlatlarning iqtisodiyotida agroklasterni o'rni va ularni tajribasidan mamlakatimizda foydalanish imkoniyatlari o'rganilgan [1].

Qishloq xo'jalik sohasida agroklasterni tashkil etish, jumladan fermir xo'jaliklari hamda dexqonlarning ishlarini tashkil etishning nazariy masalalari respublikamizning boshqa olimlari ishlarida ham o'rganilgan.

Bizning fikrimizcha, Agroklasterni sohasida buxgalteriya hisobini yo'ritish muhim ob'ekt hisoblanadi, material aylanma mablag'lar hisobini yuritish 4-son son "Tovar-moddiy zaxiralar" nomli buxgalteriya hisobining milliy standarti¹ asosida olib boriladi. Tovar-moddiy zaxiralar - keyinchalik sotish maqsadida normal faoliyat yuritish jarayonida tutib turiladigan va ishlab chiqarish jarayonida mavjud bo'lgan, shuningdek mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish jarayonida yoxud ma'muriy va ijtimoiy-madaniy vazifalarni amalga oshirish uchun foydalaniladigan moddiy aktivlar joriy aktivlar tarkibida yuqori salmoqqa ega bo'lgan material aylanma mablag'lar korxonalarida ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxida salmog'i, korxonalarining faoliyat sohasiga qarab, 60 foizdan 90 foizgacha bo'ladi. Agroklasterni materiallar aylanma mablag'lar ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxida salmog'i 40-60 foizni tashkil etadi.

Asosiy natijalar. Jahon iqtisodiyotida agroklasterni to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb qilish, paxta xom ashyosi yetishtirishning samarali usullarini joriy qilish, urug'lik materialini yetishtirish, qayta ishlash va tayyorlash, chuqur qayta ishlash asosida boshqa turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishni tashkil qilish uchun barpo etiladi.

Agroklasterni mohiyati shundaki, uning tarkibidagi biznes subyektlari, korxonalar, muassasalar xomashyoni yetishtirishdan tortib, tayyor mahsulot vujudga kelishi va uni sotishgacha bo'lgan jarayonda bitta yaxlit jamoaga birlashadi. Natijada tannarx pasayadi va ko'proq foyda olish imkoni yuzaga keladi.

agroklasterni (ing. "cluster" – to'planish, to'da) – ma'lum xususiyatlarga ega bo'lgan mustaqil birlik sifatida qaralishi mumkin bo'lgan bir nechta bir xil elementlarning birlashmasidir. agroklasterni bugungi kunda jamiyat, fan, ilmning juda ko'plab yo'nalishlarida ishlatilmoqda. Masalan, raqamlashtirilgan texnologiyalar, kimyo biologiya va boshqalar.

Agroklasterni (iqtisodiyot) – ma'lum bir hududda to'plangan, o'zaro faoliyati bir-biri bilan bog'langan dexqon xo'jaliklari guruhidir. Qishloq xo'jaligida agroklasterni – bu ma'lum bir hududda mahsulotlarni yetishtiruvchi xom ashyolar bilan ta'minlovchi, yarim tayyor mahsulotlar, tayyor mahsulotlar va ixtisoslashtirilgan xizmatlarni yetkazib beruvchi alohida kompaniyalar, korporasiyalar, ilmiy-tadqiqot institutlari, universitetlar, banklar va boshqalarni o'zaro birlashuvi, faoliyatini bir-biri bilan bog'laydigan iqtisodiy mexanizmdir.

Agroklasterni o'z ishtirokchilarining o'zaro raqobati uning ishtirokchilarining hamkorligi mintaqaning o'ziga xos vakolatlarini shakllantirish korxonasi va tashkilotlarning ma'lum bir hududda konsentrasiyasini shakllantirish xususiyatlariga ega. Agroklasterni – bu integrasiya, innovasiya va iqtisodiy o'sishni ta'minlaydigan zamonaviy iqtisodiy mexanizmdir.

¹ 4-son "Tovar moddiy zahiralar" nomli BHMS (yangi tahrirdagi). "O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami", 2006 yil, 28-29-son, 282-modda.

Quyidagilar agroklasterning asosiy vazifalari hisoblanadi:

- paxta xom ashyosi va boshqa turdagi qishloq xo'jaligi ekinlari yetishtirishning ilg'or ilmiy yutuqlari, zamonaviy va samarali usullarini joriy qilish;
- paxta xom ashyosiga birlamchi ishlov berishning samarali va yuqori rentabelli usullarini, shuningdek, chuqur qayta ishlash texnologiyalarini joriy qilish;
- paxta chigiti hamda boshqa qishloq xo'jaligi ekinlarining urug'larini davlat va xalqaro standartlar talablariga muvofiq ishlab chiqarish, tayyorlash va sotish;
- paxta xom ashyosi va boshqa qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirish jarayoniga ilg'or agrotexnik hamda suv tejaydigan texnologiyalarni joriy qilish;
- to'g'ridan-to'g'ri, shu jumladan xorijiy investitsiyalarni, shuningdek, xalqaro moliya institutlarining kreditlarini jalb qilish hisobiga qishloq xo'jaligi xom ashyosini chuqur qayta ishlash va raqobatbardosh, eksportbop mahsulot ishlab chiqarishni tashkil etish;
- yetishtiriladigan paxta va boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotining sifati hamda miqdorini hisobga olish va nazorat qilish jarayonlariga zamonaviy AKTni keng joriy etish;
- Ilmiy va ta'lim muassasalari bilan birgalikda seleksiya hamda urug'chilik sohasida tadqiqotlar o'tkazish, qishloq xo'jaligi ekinlarining yangi navlari va duragaylarini, shuningdek, paxta xom ashyosini birlamchi qayta ishlash texnologiyalarini yaratish.

Mamlakatimizda agroklasterni tashkil etish asosan qishloq xo'jaligida amalga oshirib kelinmoqda. Mamlakatimiz qishloq xo'jaligini klasterlashtirishdan ko'zlangan maqsad – agrar sohaning xomashyoga yo'naltirilganligini tugatish, uni sanoatlashtirish, mahsulot tannarxini pasaytirish va foydani keskin ko'paytirishdan iborat. Garchi paxta-to'qimachilik klasterlarimiz tashkil etilganidan buyon hali ko'p vaqt o'tmagan bo'lsa-da, ularning aholi turmush darajasini oshirishdagi ahamiyati yaqqol sezilyapti.

Iqtisodiyotning qaysi tarmoq va sohalarida klasterlar tashkil etilmasin, ularda albatta ixtisoslashtirilgan xizmatlar ham mavjud bo'lishi kerak. Qishloq xo'jalik sohasini rivojlanishida agroklasterning o'rni beqiyosdir. Qishloq xo'jalik sohasida xizmat ko'rsatish jarayonini rivojlantirishda agroklasterni bilan bog'liq bo'lgan jihatlari Ikki yo'nalishda deb hisoblaymiz:

1. Iqtisodiyotning qaysiki tarmoqlari yoki sohalarida, jumladan, agrar soha, metallurgiya, yengil sanoat bo'limlarini tashkil etilgan klasterlarda ixtisoslashgan agroklasterni rivojlanadi. Agroklasterni tarkibida bir qator xom ashyo yetkazib beruvchi fermir xo'jaliklar birlashadi.
2. Qishloq xo'jalik sohalarining qaysiki bir yo'nalishida, jumladan, savzavotchilik klasteri, savdo xizmatlari klasteri, agraservis klasteri tashkil etilishi mumkin. Qishloq xo'jalik sohasining bir tarmog'ida faoliyat olib boradigan bir nechta biznes subyektlarini birlashtirgan klaster barpo etiladi.

Xulosa. Qishloq xo'jaligi sohasida agroklasterni rivojlantirishning dolzarb masalalari sifatida quyidagilarni qayd etib o'tish maqsadga muvofiqdir:

- 1) Qishloq xo'jalik sohasida agroklasterni tashkil etishda sohada mikro va makro fermir xo'jaliklarining ko'pligi, hududiy segmentasiyasi, individuallik, xodimlarga yuqori talab qo'yilishiga alohida e'tibor berish;
- 2) Qishloq xo'jalik mahsulotlari sifatini aniqlash va ularni standartlashtirishdagi qiyinchiliklar, fermir xo'jalik jarayonini tashkil etishga alohida e'tibor berish lozim. Chunki, agroklasterni faoliyat bevosita barcha dexqon xo'jalik subyektlarining faoliyatiga bog'liq bo'ladi. Ularning faoliyatining muvofiqligini ta'minlash aynan sifat va standartlashtirishga borib taqaladi;
- 3) Mahsulotlariga bo'lgan talabning o'sishining aholining real daromadlariga bog'liqligini hisobga olish. Qishloq xo'jalik sohasida agroklasterni tashkil etish bozor tadqiqotlariga asoslanishi

maqsadga muvofiq. Bozor tadqiqotlari natijasida agroklastlar, ulardagi mahsulotlar turlari va yo'nalishlari yo'lga qo'yilishi istiqboldagi muvaffaqiyatni ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abdullayev A.A. "Milliy iqtisodiyotda klasterlarni rivojlantirishning xorijiy mamlakatlar tajribasi tahlili". Iqtisod va moliya jurnali, №7 2017, 27-33 betlar
2. Ketels Ch., Lindqvist G. and Solvell O. (2012) Strengthening Clusters and Competitiveness in Europe. The Role of Cluster Organizations [Online], available at: <http://gosbook.ru/note/84334> (Accessed 7 December 2016).
3. Jonathan Sallet and Ed Paisley Innovation Clusters Create Competitive Communities. Huff Post Social News September 21, 2009.
4. Моржакова К.Э., Крюкова О.Г., Особенности инновационных кластеров. // Электронный научно-экономический журнал «Стратегия бизнеса», 2016, №6 (26).
5. Прохорова В.В., Хачатурова М.С. Функции и инструменты развития кластеров в региональной экономике современной России. Монография. 2015.